

PUNKTUATSIYANI O'RGATISHDA INTERFAOL METODLARNING SAMARADORLIGI: TAJRIBA VA TAHLIL

Ortig'aliyeva Ruzanna Farxod qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU 3-bosqich talabasi

ruzannaortigaliyeva@gmail.com

Annotatsiya : Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida, xususan, 9-sinflarda punktuatsiya mavzusini o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi o'rganilgan. Kompetensiyaviy, kognitiv va reflektiv yondashuvlar asosida o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishga qaratilgan amaliy tajriba asosida metodik tavsiyalar berilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalardan – Mentimeter, Padlet, QR-kodli topshiriqlar, teskari savollar va o'zaro baholash kabi usullarning natijalari tahlil etilgan. Tajriba Toshkent shahridagi 281-umumta'lim maktabida o'tkazilgan.

Kalit so'zlar: punktuatsiya, interfaol metod, zamonaviy texnologiyalar, kompetensiya, refleksiya, tajriba, savodxonlik.

Аннотация: В данной статье исследована эффективность использования интерактивных методов при обучении пунктуации в общеобразовательных школах, в частности, в 9 классах. На основе компетентностного, когнитивного и рефлексивного подходов даны методические рекомендации, направленные на повышение уровня грамотности учащихся через практический опыт. Также проанализированы результаты применения современных цифровых технологий — Mentimeter, Padlet, задания с QR-кодами, обратные вопросы и взаимное оценивание. Эксперимент проведён в общеобразовательной школе № 281 города Ташкента.

Ключевые слова: пунктуация, интерактивный метод, современные технологии, компетенция, рефлексия, опыт, грамотность.

Annotation: This article explores the effectiveness of using interactive methods in teaching punctuation to 9th-grade students in general secondary schools. Based on competency-based, cognitive, and reflective approaches, the study provides methodological recommendations for improving students' literacy through practical classroom applications. A pedagogical experiment was conducted at School No. 281 in Tashkent, where modern digital tools such as Mentimeter, Padlet, QR-coded tasks, reverse-question techniques, and peer review strategies were implemented. The analysis demonstrates a significant increase in student engagement, independent thinking, and academic performance, confirming the pedagogical value of interactive learning models.

Keywords: punctuation, interactive method, modern technology, competence, reflection, experiment, literacy.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning yozma nutq madaniyatini shakllantirish, savodxonlik darajasini oshirish va fikrni aniq, tushunarli ifoda eta olish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Punktuatsiya yozuv singari millatning madaniy boyligi hisoblanadi. Undan fan, ta'lim, matbuot, nashriyot, maorif va madaniyat sohalarida keng foydalaniladi [N.Mahmudov, 2021:8]. Ayniqsa, tinish belgilaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri va yozma ifodadagi aniqlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

D.Yo'ldoshevaning fikricha, "Tinish belgilarining ahamiyati shundaki, ular matnning mazmuni, sintaktik tuzilishi, qismlar orasidagi grammatik va ma'no munosabatlarini belgilaydi" [D.Yo'ldosheva, 2021: 340]. Punktuatsiya yozuvchiga fikrini aniq ifodalash, o'quvchiga esa uni to'g'ri tushunish imkonini beradi. Demak, punktuatsiya ikki tomonlama muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bois, uni o'qitishda zamonaviy metodik yondashuvlar, interfaol usullar va raqamli texnologiyalardan foydalanish bugungi ta'lim jarayonining ajralmas bo'lagiga aylanmoqda.

Ayni paytda bu boradagi metodik yondashuvlar zamonaviy talablarga moslashib bormoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida punktuatsiyani o'qitishda interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, mashq topshiriqlari orqali o'quvchilarning savodxonligini oshirish bo'yicha samarali yondashuvlar shakllanmoqda [5]. Xorijiy tajribada esa David Crystal punktuatsiyaning muloqotdagi aniqlik va tafakkurni ifodalashdagi o'rniga alohida e'tibor

qaratgan [3]. Roz Ivanich esa yozma savodxonlikni rivojlantirishda metodik yondashuvlarning ahamiyatini chuqur tahlil qiladi. Shu bois, ushbu maqolada punktuatsiyani o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari, shuningdek, metodik tavsiyalar keng yoritiladi[4].

Bugungi kunda ta'lim jarayonida metodik yangilanishlar, innovatsion texnologiyalar, va kompetensiyaviy yondashuvlar ustuvorlik kasb etmoqda. Bu o'zgarishlar ona tili darslarida, xususan punktuatsiyani o'rgatishda ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda o'qituvchining vazifasi faqat bilim berish emas, balki o'quvchini faol ishtirokchi, mustaqil tahlilchi, fikrlovchi sifatida shakllantirishdir.

Kompetensiyaviy yondashuvga ko'ra, o'quvchi o'z bilimini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi zarur. Bu yondashuvda punktuatsiya faqat grammatik vosita emas, balki muloqot madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. O'quvchi tinish belgilaridan foydalanib, matnning ohangini, mantiqiy tuzilishini va emotsional ta'sirini boshqara olishni o'rganadi.

Kognitiv yondashuv esa punktuatsiya qoidalarini mantiqiy asosda tahlil qilishni, ularni ongli ravishda o'zlashtirishni ta'minlaydi. Masalan, tinish belgilarining qo'llanishi sintaktik birliklar orasidagi munosabatlar asosida tushuntiriladi. Bu esa o'quvchining mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Reflektiv yondashuvda esa o'quvchilar o'z yozgan matnlarini qayta ko'rib chiqish, xatolarni aniqlash va tahlil qilish orqali o'rganadilar. Bu usul ularning tanqidiy fikrlashini va o'z o'rganishiga nisbatan mas'uliyatini oshiradi.

Zamonaviy ta'limda o'quvchini dars jarayonining markaziga qo'yish, uni faol ishtirokchi sifatida shakllantirish maqsadida quyidagi interfaol metodlar keng qo'llanilmoqda:

1. "Mentimeter" orqali onlayn test va savol-javob

Bu raqamli platforma orqali o'qituvchi o'quvchilarga punktuatsiyaga oid testlar, ko'p tanlovli savollar, yoki "to'g'ri-noto'g'ri" topshiriqlarni onlayn tarzda berib, darhol natijalarni ko'ra oladi. Bu metod o'quvchilarda raqamli savodxonlikni ham oshiradi.

2. "Padlet" devori orqali birgalikda fikr yozish

O'quvchilar punktuatsiya qoidalariga oid savollar yoki misollarni Padlet platformasida umumiy devorga joylashtiradi. Har bir o'quvchi boshqalarning fikriga izoh qoldiradi yoki o'z taklifini bildiradi. Bu usul hamkorlikda fikrlashni rivojlantiradi.

3. “Teskari savollar” usuli

O'qituvchi o'quvchilarga to'g'ri javobni beradi (masalan, vergul bilan ajratilgan gap), o'quvchi esa qaysi qoida asosida ushbu belgilar qo'yilganini izohlashi kerak bo'ladi. Bu metod tahliliy fikrlashni rivojlantiradi.

4. “Matnga tahrir kiritish” metodi

O'quvchilarga tinish belgilari xatolari bilan yozilgan matnlar taqdim etiladi. Ular guruhda tahrir qilib, o'z variantlarini taqdim etadilar. Bu usul yozma savodxonlikni oshiradi.

5. “QR-kodli topshiriqlar”

Har bir topshiriq QR-kod ko'rinishida taqdim etiladi. O'quvchi telefon orqali kodni skanerlab topshiriqni oladi. Bu usul o'quvchini texnologik vositalar orqali mustaqil ishlashga undaydi.

6. “O'zaro baholash” (Peer Review)

O'quvchilar bir-birining yozgan matnlarini o'qib, punktuatsion xatolarni aniqlaydi va izoh beradi. Bu jarayonda ular o'rganishni o'zaro o'rgatish shaklida olib boradilar.

Interfaol metodlarning 281-maktab 9-“B” sinfida qo'llanilishi va natijalari

2025-yilning mart-aprel oylarida Chilonzor tumani 281-maktabining 9-“B” sinfida punktuatsiya mavzusini o'rgatishda yangi interfaol metodlar sinovdan o'tkazildi. Sinfda jami 28 nafar o'quvchi qatnashdi. Amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning mavzuni qabul qilish darajasi, faolligi va mustaqil fikrlash qobiliyati o'rganildi.

Natijalar quyidagicha:

“Mentimeter” platformasida onlayn testlar: O'quvchilar uchun punktuatsiya qoidalari bo'yicha 15 ta savoldan iborat test tashkil etildi. Testdan oldin o'quvchilarning o'rtacha natijasi 65% ni tashkil etgan bo'lsa, testdan so'ng bu ko'rsatkich 87% ga ko'tarildi. O'quvchilar test vaqtida faollik ko'rsatib, natijalarni darhol ko'rib, o'z xatolarini tahlil qila oldi.


“Padlet” devori orqali fikr almashinuvi: Sinf o‘quvchilari punktuatsiya qoidalarini bo‘yicha 5 ta savol va misollarni Padletga joylashtirdi. 25 nafar o‘quvchi faol qatnashib, o‘z fikrlarini yozdi, boshqalar fikriga izoh qoldirdi. Bu jarayon hamkorlik va birgalikda fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

“Teskari savollar” usuli: O‘qituvchi tomonidan berilgan 10 ta jumlaning o‘quvchilar punktuatsiya qoidalarini nuqtai nazaridan tahlil qildi. 20 nafar o‘quvchi to‘g‘ri javob bera oldi, ya’ni 71% o‘quvchi qoidalarni to‘g‘ri tushundi.

“Matnga tahrir kiritish” metodi: Sinf o‘quvchilari guruhlariga bo‘linib, xatolar bilan yozilgan matnlarni tahrir qildi. 26 nafar o‘quvchi (92%) xatolarni aniqlab, to‘g‘ri variantlarini taqdim etdi. Bu yozma savodxonlikni oshirishda katta yordam berdi.

“QR-kodli topshiriqlar”: Har bir o‘quvchi smartfon orqali QR-kodni skaner qilib, topshiriqlarni mustaqil bajardi. 24 nafar o‘quvchi (86%) topshiriqlarni to‘liq va aniq bajardi, bu ularning texnologiyadan samarali foydalanish ko‘nikmasini ko‘rsatadi.

“O‘zaro baholash” (Peer Review): O‘quvchilar bir-birlarining yozgan matnlarini baholab, xatolarni aniqladi. 23 nafar o‘quvchi (82%) o‘z fikrini konstruktiv tarzda bildirib, tanqid qila oldi.



Yuqorida keltirilgan tahlillar va amaliy tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, punktuatsiyani o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish nafaqat o‘quvchilar bilimini oshiradi, balki ularning darsga bo‘lgan munosabatini ham ijobiy tomonga o‘zgartiradi. Mentimeter, Padlet, QR-kodli topshiriqlar, teskari savollar va o‘zaro baholash kabi usullar o‘quvchini passiv eshituvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu metodlar orqali

o'quvchilar o'z fikrini ifodalash, mantiqiy tahlil qilish va yozma nutqda aniq va to'g'ri tinish belgilaridan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlab boradilar.

Tajriba davomida o'quvchilarning savodxonlik darajasi, mustaqil fikrlashi, tanqidiy tahlil qilish qobiliyati va texnologiyadan foydalanish madaniyati ancha oshgani kuzatildi. Ayniqsa, o'zaro baholash va refleksiya asosidagi topshiriqlar ularni mas'uliyatli yondashuvga o'rgatib, bilimga ega bo'lish bilan birga, uni boshqalarga yetkazish, tushuntirish, tahlil qilish ko'nikmalarini ham shakllantirdi.

Shu bois, interfaol metodlardan foydalanish bugungi ta'lim talablariga mos zamonaviy yondashuv bo'lib, uni nafaqat punktuatsiya, balki til va adabiyotning boshqa bo'limlariga ham tatbiq etish lozim. Tajriba asosida shuni ta'kidlash mumkinki, zamonaviy vositalarning dars jarayoniga integratsiyasi o'quvchilarning faolligini oshirishda sezilarli samara beradi.

Kelajakda bunday metodik yondashuvlar asosida yaratilgan dars ishlanmalari, amaliy qo'llanmalar va elektron resurslar orqali yanada kengroq auditoriyaga yetib borish, ularni tizimli o'rganish va takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'Yxati

1. Crystal D. Making Sense: The Glamorous Story of English Grammar. – London: Profile Books, 2017. –240 p.
2. Ivanich R. Improving Literacy Through Classroom Practice. – New York: Routledge, 2015. – 192 p.
3. Mahmudov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2021. – 320 b.
4. Xasanboyeva Z. Ona tili darslarida interfaol metodlar. – Toshkent: TDPU Nashriyoti, 2020. – 120 b.
5. Yo'ldosheva D. Hozirgi o'zbek tili sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 412 b.